

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

## MAKTAB O'QUVCHILARIDA INNOVATSION KLASTER USULINI QO'LLASH ORQALI JISMONIY TARBIYA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

*Boltayev Shamshodjon Elmurod o'g'li*  
*ChDPU Jismoniy madaniyat va sport kafedrasi o'qituvchisi*  
[\*boltayev8585@gmail.com\*](mailto:boltayev8585@gmail.com)

**Kalit so'zlar:** Maktab, innovatsiya, klaster, metod, maktab o`quvchilari faoliyati, jismoniy tarbiya

**Kirish.** Sh.M.Mirziyoyev prezidentlik lavozimiga kirishgan dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lif tizimini takomillashtirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratib kelmoqda. Darhaqiqat, maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. 2019 yilning 23 avgust sanasida xalq ta'lifi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasini va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida yurtboshimiz: "**Maktab-bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak**", deya ta'kidlab, pedagogikaga ixtisoslashgan oliy ta'lif muassasalarining maktablardagi o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish, o'qituvchilarning bilim va malakasini yuksaltirishdagi o'rni sezilmayotganligini afsus bilan qayd etdi.

Fan va texnikaning shiddat bilan rivojlanishi natijasida barcha sohalarga joriy qilinayotgan innovatsiyalarning maqsadi, pirovardida mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini oshirishga qaratilgan, tayyor andozalarni olish, ulardan ijodiy foydalanish yaxshiroq natija beradi. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlarida xalqaro tajribada sinalgan va mamlakat iqtisodiyotining ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etuvchi innovatsion tajribalarni qo'llashga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ana shunday innovatsiyalardan biri "**klaster modeli**" bo'lib, bugungi kunda u O'zbekistonda ko'proq agrar, to'qmachilik va yengil sanoat sohalarida keng qo'llanilmoqda. Qisqa muddatlar ichida klaster modeli iqtisodiyotda istiqbolli innovatsion yo'naliш sifatida e'tirof etildi va ushbu modelni boshqa sohalarda qo'llash tajribalari amalga oshirilmoqda.

**Metodologiyasi.** Ta'limga nisbatan klaster yondashuv borasidagi tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish bu boradagi bir qancha qarashlarni jamlashga imkon berdi. Demak, klaster yondashuvi bu:

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

- alohida soha (ta’lim, iqtisodiyot va b.) bo‘lib, raqobatbardosh samaradorlikka erishishdan manfaatdor bo‘lgan sohalar birlashishining tashkiliy shakllarini kuchaytirish mexanizmi;
- ixtiyoriy komponentlar qatorida o‘zining to‘liq funksional ishchanlik qobiliyatini saqlaydigan bir nechta teng huquqli bo‘laklardan iborat bo‘lgan tuzilma;
- ta’lim-fan-ishlab chiqarish tizimida innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashni shakllantirish vositasi;
- tashkilotning kelajak iqtisodiyoti uchun kadrlar salohiyatini shakllantirishni tashkil qilishning innovatsion samarali usuli;

Rus olimlari tomonidan ta’lim klasterlarini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy asoslarini o‘rganish quyidagi yo‘nalishlarda olib borilgan:

- a) kasbiy ta’limga nisbatan klaster yondashuvi (B.Pugacheva, A.V.Leontiyev);
- b) faoliyat va pedagogik loyihalash nazariyasi (V.V.Davidov, V.P.Bespalko, G.I.Ibragimov, B.S.Lednev, M.I.Maxmutov, A.A.Slastenin);
- v) uzlusiz ta’lim konsepsiysi (B.S.Gershunskiy, G.V.Muxametzyanova, A.M.Novikov);
- g) kasb-hunar mакtablarida ta’limning ijtimoiy sheriklik va boshqaruв muammolarini ohib beruvchi tadqiqotlar (P.F.Anisimov, G.V.Muxametzyanova, G.I.Ibragimov, Ye.A.Korchagin, V.P.Panasyuk, A.S.Subetto).

Ta’kidlash joizki, ushbu sohalar qatori Jismoniy tarbiya va sportga ham davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga joriy etilgan “O’zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishini amalga oshirishga mo’ljallangan harakatlar strategiyasi”, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy sohada joriy etilgan Prezidentimizning beshta tashabbusi, 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3031-sonli qarori, 2018-yil 5-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruв tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5368-sonli farmoni va boshqa lashu kabi konseptual hujjatlar talablari doirasida shakllanib bormoqda.

Zamonaviy texnologiyalar yordamida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishning samaradorligi quyidagi shartlarga bevosita bog‘liq:

- o‘rganilayotgan harakatlarning yuqori ko‘rinishi;
- dars davomida talabalarning harakatlarini nazorat qilish va ularning malakasini mustahkamlash;
- o‘quv faoliyatini vaqtiga vaqtiga bilan yangilab turish va ularni yangi ma’lumotlar bilan boyitish;

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

- o‘qituvchi o‘z fanining nazariyasi va o‘qitish metodikasi, o‘quvchilarning o‘ziga xos ruhiy va jismoniy xususiyatlari bo‘yicha chuqur bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi;
- har bir darsni innovatsion va pedagogik tarzda rejalashtira olish;
- o‘quvchilarda yuksak axloqiy-ma’naviy fazilatlarni tarbiyalash;
- o‘quvchilarning huquqlari va himoyasi to‘g‘risidagi qonun talablariga rioya qilish;
- o‘quvchilar bilimini oshirish, olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatini yaratish uchun ijodiy va izlanuvchan bo‘lish;
- har bir darsni hayotiy ko‘nikmalarga yo‘naltirish uchun tashkil eta olish;
- o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatini hisobga olgan holda o‘qitish usullarini turlicha tashkil eta olish; - har bir darsni samarali tashkil eta olish;

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mukhammedov, G. I., Khodjamkulov, U. N., Shofkorov, A. M., & Makhmudov, K. S. (2020). Pedagogical education cluster: content and form. ISJ
2. Таймазов А.В. Развитие спортивно-оздоровительных кластеров как инновационный подход к решению региональных социально-экономических задач. *Экономика и управление*. 2016;(7):24-27.
3. Маматкулов Р.С. Научно-теоретические основы развития физической культуры студентов высших учебных заведений кластерным методом “ХАЛQ TA’LIMI” ilmiy metodik junali 2021y 5-sон
4. Араббоев, К. Т., and Е. Я. Михайлова. "ОБОСНОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ФАКУЛЬТЕТА ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ПОСРЕДСТВОМ ТЕХНОЛОГИЙ ИНТЕГРИРОВАННОГО МОДУЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ." Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi 7 (2023): 753-757.945825205
5. Mukhammedovich, Juraev Vohidjon. "Psychological Features of Competitive Motivation of Athletes." Central asian journal of literature, philosophy and culture 3.11 (2022): 312-314.
6. Tokhirzhonovich, Arabboev Kakhramon. "The effect of physical activity on the body of schoolchildren in physical education lessons." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.12 (2023): 112-115.
7. Tohirjonovich, Arabboev Qahramon. "THE ROLE OF PHYSICAL CULTURE AND SPORTS IN STUDENT ACTIVITY AND LIFESTYLE."

**Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari**

INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.09 (2023): 58-63.

8. Jurayev, Vohidjon. "SPORTCHINING FAOLIYAT SAMARADORLIGIDA DA'VOGARLIK DARAJASI AHAMIYATINI EMPIRIK NATIJALARI TAHLILI." Science and innovation in the education system 2.7 (2023): 106-112.

9. Араббоев, Қ. Т. "Жисмоний тарбия дарсларида талабалар ўқув-спорт фаоллигини оширишда шахсга йўналтирилган таълим турларининг ўрни." Фан-спортга Учредители: Узбекский государственный университет физической культуры и спорта 6: 68-71.

10. Akramovich, Talipdjanov Alijon, and Akhmedov Umidjon Usmonovich. "Pedagogical Requirements Of Physical Education Training In The Higher Education System." Onomázein 62 (2023): December (2023): 2365-2369.

11. Талипджанов, А. А., Б. Б. Нурматов, and А. А. Пармонов. "Учебно-тренировочный процесс по футболу." International conference: problems and scientific solutions. Vol. 1. No. 6. 2022.

12. Sultonov, Usmon Ibragimovich. "METHOD OF CONTROLLING THE TRAINING PROCESS OF LONG-DISTANCE RUNNERS." Eurasian Journal of Academic Research 2.3 (2022): 132-137.

13. Ibragimovich, Sultonov Usmon. "DYNAMICS OF MORPHOLOGICAL INDICATORS IN THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF LONG-DISTANCE RUNNING." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.01 (2022): 129-132.

14. Abdukhamedovich, Moydinov Iqboljon. "PHYSICAL AND MENTAL ACTIVITY OF STUDENTS AND IT EFFECTS OF DIFFERENT HORSES." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.4 (2023): 219-224.